

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.D.Baxronov	
Yangilanayotgan O'zbekistonda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning o'рни.....	201
H.S.Ergashev	
Sharq mutaffakirlari ijodida shaxs ma'naviy kamolotiga oid falsafiy qarashlar evolutsiyasi	207
I.T.Boltaboyev	
Temuriylar davri mutaffakirlari tasavvufiy-falsafiy qarashlarida komil insonga oid g'oyalarning rivojlanishida Amir Temurning o'рни.....	212
Sh.O'.Ahrorova	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'рни.....	216
U.X.Xolmatov	
Axboriy kurashlar sharoitda millatlararo munosabatlarni mustahkamlashning milliy-ma'naviy omillari	220
F.B.Rahmonova	
O'zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonliklardan himoya qilishning falsafiy-deterministik tahlili	225
J.Saburov	
Buxoro amirligida tasvuf ilmi uzviyligi va ijtimoy madaniy hayotga uyg'unligi hamda ta'siri	230
B.A.Pulatov	
Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning falsafiy omillari	236
S.S.Evatov	
Musulmon sharqi falsafiy tafakkurining takomil bosqichlari va unga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar xususida.....	240
A.Sh.Raximov	
Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida yoshlar vatanparvarligi fenomenining ijtimoiy-falsafiy tavsifi	245
	SIYOSAT
Sh.Ismoilov	
O'zbekistonda ijtimoiy himoya – davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish	249
D.Sh.Mahkamov	
Hakamlik sudi va davlat sudlari o'rtasidagi farqlar	252
R.Nurimbetov	
Shanxay hamkorlik tashkiloti istiqbollari: O'zbekiston yondoshuvlari	255
B.X.Allamurodov	
Digital diplomacy in the foreign policy of Central Asian countries (using the example of Uzbekistan and Kazakhstan)	258
M.B.Nabiyev	
Jamoat birlashmalarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	265
N.Madumarova	
Kasaba uyushmalari notijorat tashkilotlarning alohida shakli sifatida	269
A.A.Buriyev	
Sudlar orqali intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq nizolarni hal qilishning o'рни va bu boradagi xorijiy tajriba	273
D.Mamadjonova	
Siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari	277
A.A.Ahrorqulov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solish.....	281
	TARIX
Бурҳониддин Чалодиддин	
Мухаммадвалихан Дарвози основатель новой прогрессивной внешней политики.....	285
M.T.Musaev	
Globalashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo'lishi	292
R.A.Arslonzoda	
Отражение литературной жизни Бухары в “воспоминаниях” Садриддина Айни	297



UO‘K:341.231.343.4

JAMOAT BIRLASHMALARINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMI
КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВОЙ СТАТУС ОБЩЕСТВЕННЫХ ОБЪЕДИНЕНИЙ
CONSTITUTIONAL AND LEGAL STATUS OF PUBLIC ASSOCIATIONS

Nabiyev Muhriddin Baxtiyor o‘g‘li 
Huquq ta‘limi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Bu maqola jamoat birlashmalari notijorat tashkilotining ma‘lum bir qismi sifatidagi o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi fikrlar ilgari surilgan. Jamoat birlashmalari – jamiyatda nodavlat notijorat tashkilotlarning muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Uni puxta o‘zlashtirish orqali – jamoat birlashmalari, ularning tashkiliy-huquqiy asoslari, jamiyat siyosiy tizimidagi o‘rni, ahamiyati, jamoat birlashmalarining shakllari, ularga a‘zo bo‘lish tartibi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin.

Аннотация

В данной статье представлены представления о роли и значении общественных объединений как определенной части некоммерческой организации. Общественные объединения являются одним из важных звеньев неправительственных некоммерческих организаций в обществе. Досконально освоив его, можно получить информацию об общественных объединениях, их организационно-правовых основах, их роли в политической системе общества, их значении, формах общественных объединений и порядке их членства.

Abstract

This article presents ideas about the role and significance of public associations as a certain part of a non-profit organization. Public associations are one of the important links of non-governmental non-profit organizations in society. Having thoroughly mastered it, you can obtain information about public associations, their organizational and legal foundations, their role in the political system of society, their significance, forms of public associations and the order of their membership.

Kalit so‘zlar: jamoat birlashmalari, kasaba uyushmasi, notijorat tashkilot, ijtimoiy himoya, fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar

Ключевые слова: общественные объединения, профсоюз, некоммерческая организация, социальная защита, гражданские, политические, экономические, социальные и культурные права

Key words: public associations, trade union, non-profit organization, social protection, civil, political, economic, social and cultural rights

KIRISH

Jamoat birlashmalari – jamiyatda nodavlat notijorat tashkilotlarning muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Uni puxta o‘zlashtirish orqali – jamoat birlashmalari, ularning tashkiliy-huquqiy asoslari, jamiyat siyosiy tizimidagi o‘rni, ahamiyati, jamoat birlashmalarining shakllari, ularga a‘zo bo‘lish tartibi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi “Fuqarolik jamiyati institutlari” deb nomlanadi. 69-75-moddalarni o‘zida qamragan mazkur bobda jamoat birlashmalarining ta‘rifi, tasnifi, ularni tashkil etish shartlari, davlat va jamoat birlashmalari o‘zaro munosabatlarning asosiy shartlari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlar kabi jamoat birlashmalarining alohida xususiyatlari, jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ular faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo‘yishga oid konstitutsiyaviy normalar o‘z ifodasini topgan.

Davlat va jamiyat boshqaruviga qiziqadigan har qanday shaxsda «Jamoat birlashmalari o‘zi nima?» degan, savol tug‘ilishi tabiiy. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasida jamoat birlashmalari haqida quyidagi huquqiy norma mavjud: «O‘zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e’tirof etiladi».

Jamiyatda har bir shaxs boshqalar bilan o'zaro muloqot qilishga, hamkorlikka, birlashuvga doimo ehtiyoj sezadi. Ayniqsa, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, qiziqishlari va qarashlari jihatidan o'ziga mos keladigan qatlam bilan o'zaro manfaatlar mushtarakligi asosida birlashish, turli tashkilotlari tuzish, ularga a'zo bo'lishga harakat qiladilar. Shu kabi davlatga qarashli bo'lmagan tuzilmalar jamoat birlashmalari hisoblanadi. Ularga birlashish, a'zo bo'lish fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi hisoblanadi.

Har bir shaxsga bu kabi birlashmalarga a'zo bo'lish, ularning faoliyatida ishtirok etish huquqi xalqaro va milliy qonun hujjatlari asosida kafolatlangan.

«O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan. Unda jamoat birlashmalari turlari, ularni tashkil etish shartlari, ularning huquq va majburiyatlari aks ettirilgan.

Ushbu qonunda qayd etilganidek, Inson huquqlari to'g'risidagi Umumjahon deklaratsiyaga va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslanib, fuqarolarning jamoat birlashmalarini tuzish erkinligi ularning juda muhim ajralmas huquqi sifatida mustahkamlangan.

Jamoat birlashmalari jismoniy shaxslar tomonidan, ularning tashabbusi bilan tuziladi. «O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida»gi qonunda, jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzilishi belgilangan. Unga a'zo bo'lish ixtiyoriydir.

O'zbekistonda jamoat birlashmalari qonunlarda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyingina faoliyat olib borishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Adliya vazirligiga ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish vakolati berilgan.

Mamlakatda turli vakolatlarga ega bo'lgan davlat organlari bilan birga yuqoridagi kabi fuqarolar tomonidan tashkil etiladigan, ayrim yo'nalishlarda davlatning kuch va imkoniyati cheklangan jabhalarga unga ko'mak beradigan jamoat birlashmalari ham mavjud. Ular asosan, aholining turli qatlamlari, masalan, xotin-qizlar, nogironlar, faxriylar, yoshlar va h.k. manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida tashkil etiladi. Davlat ularning erkin faoliyat olib borishini kafolatlaydi.

Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish; fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish; kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport ishlarini amalga oshirish; tabiatni, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi;

respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur sohada ilmiy izlanish olib borgan B.Narimanovning fikricha, «nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish bu – birinchidan, insonning tabiiy ehtiyojidan kelib chiqsa, ikkinchidan, jamiyatga birlashgan boshqa insonlarga yordam berishga qaratilgan insongagina xos bo'lgan xususiyatlarni namoyon qiladi».¹¹

Fuqarolar bunday jamoat birlashmalarini tuzish yoki ularga a'zo bo'lish orqali o'zlarining orzu-umidlari va xohish-istaklarini amalga oshirilishiga, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishga harakat qiladilar.

Masalan, O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalar faoliyat olib boradi. Ular ham jamoat birlashmasining bir shaklidir. Ularga a'zo bo'lish orqali fuqarolar o'z siyosiy huquqlarini amalga oshirishga harakat qiladilar. Siyosiy partiyalar faoliyatida ishtirok etish orqali siyosiy jarayonlarda ishtirok etadilar, xususan vakillik organlari deputatligiga o'z nomzodlarini ko'rsatilishi imkoniyati paydo bo'ladi.

Yoki Hunarmandlar uyushmasi kabi jamoat birlashmasiga a'zo bo'lish orqali hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi fuqarolar o'z amaliy ishlarini keng namoyish etish, turli ko'rgazmalarda qatnashish, davlat tomonidan hunarmandlar uchun belgilangan turli shakldagi (masalan, soliq va boshqa) imtiyozlarga ega bo'lishlari mumkin.

¹¹ Narimanov B.A. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini akomillastirish. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya Avtoreferati. –Toshkent, TDYUU., 2020. –B. 11.

SIYOSAT

Yohud, yoshlar uchun tashkil etilgan jamoat birlashmalari. Masalan, Yoshlar ittifoqi. Unga a'zo bo'lish, uning faoliyatida ishtirok etish, yoshlarga o'z iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etish, turli yo'nalishlar bo'yicha bilim va tajribalarini yanada rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Hozirgi kunda ushbu tashkilotning 10 684 333 ta a'zosi bor¹².

Bunday tashkilotlardagi ishtirok – yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Jamoat birlashmalarining o'ziga xos jihatlari shu sohaga tegishli bir qator boshqa qonunlarda yana mukammal yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi, «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonunlarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 74-moddasida uning mohiyati yanada kengroq yoritilgan.

O'zbekiston huquqiy amaliyotida so'nggi vaqtlarda jamoat birlashmasi tushunchasi o'rniga ko'proq nodavlat notijorat tashkilotlari atamasi qo'llanilmoqda.

Buning sababi shundaki, O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonuni keyinroq, ya'ni 1999-yilda qabul qilingan. Shuningdek, uning 10-moddasiga asosan, jamoat birlashmasi nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri sifatida belgilangan. Oddiyroq tavsiflaganda nodavlat notijorat tashkilotlari tushunchasi jamoat birlashmasi atamasiga nisbatan kengroq ma'noni anglatadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari nodavlat notijorat tashkilotlarining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi. Bugungi kunda davlat ro'yxatidan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlarining yarmidan ortig'ini aynan jamoat birlashmalari tashkil etadi.

2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 10 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat olib bormoqda. Ularning soni 1991-yilda 95 tani tashkil etgan.

Adliya vazirligining ma'lumotiga ko'ra, ushbu tashkilotlarning 6561 tasi jamoat birlashmasi, 434 tasi muassasa, 488 tasi jamoat fondi va 1995 tasi boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda (shundan 1423 tasi suvdan foydalanish uyushmalari) tashkil etilgan. Nodavlat notijorat tashkilotlari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohanining turli yo'nalishlarida, xususan, tadbirkorlik rivojlantirish sohasida – 2 000 dan ortiq, ekologiyani asrash sohasida – 100 dan ortiq, sportni rivojlantirish sohasida – 1200 dan ortiq, imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohasida – 600 dan ortiq, yoshlarni qo'llab-quvvatlash sohasida – 600 dan ortiq, ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishda – 300 dan ortiq, faxriylarni qo'llab-quvvatlash sohasida – 400 dan ortiq, milliy madaniy aloqalarni va millatlaro do'stlikni rivojlantirish sohasida – 200 dan ortiq, xodimlarning huquqlarini himoya qilish sohasida – 570 dan ortiq, ta'lim, fan va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish sohasida – 240 dan ortiq, sog'liqni saqlash sohasida – 220 dan ortiq, OAV va jurnalistikani rivojlantirish sohasida – 30 ga yaqin, madaniyat, tarix va ma'rifat sohasida – 50 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari va uning hududiy bo'limlari mavjud.

Nodavlat notijorat tashkilotlari jami 55 000 dan ortiq xodimlar, shundan 21 000 dan ortig'i jamoatchilik asosida faoliyat olib bormoqdalar. Shu bilan birga 20 mln.dan ortiq fuqarolar turli NNTlarning a'zolari hisoblanadi¹³.

Hozirgi kunga kelib dunyodagi nodavlat tashkilotlarining soni bir necha 10 millionlardan ortib ketdi. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda ular jadallik bilan ortib bormoqda. Masalan, AQShda 1,5 mln.dan ortiq, Fransiyada 1,2 mln., Hindistonda 4,5 mln.ga yaqin nodavlat tashkilotlari ro'yxatga olingan¹⁴.

Dunyoda nodavlat notijorat tashkilotlari «uchinchi sektor» sifatida jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy-ma'rifiy muammolarni hal qilish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali «ezgu boshqaruv» konsepsiyasini amalga oshirish, BMTning 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari va ularga bog'liq bo'lgan 169 vazifalarni bajarishda davlatga asosiy ko'makchi sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarni bajarish

¹² Nodavlat notijorat tashkilotlari raqamlarda. <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/89960/>

¹³ Qarang: Nodavlat notijorat tashkilotlari raqamlarda. <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/89960/>

¹⁴ Yakubov Sh.U. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning amaliy ijrosi: davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining istiqbollari misolida // Yuridik fanlar axborotnomasi 2020 yil, maxsus soni. –B 42.

zarurati ayniqsa COVID-19 pandemiyasi vaqtida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy yordamga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlovchi volontyorlik harakatlari shaklida o'zining samaradorligini ko'rsatdi.

Bunday tendensiyalar fuqarolarning turli nodavlat tashkilotlariga birlashib, o'z konstitutsiyaviy, siyosiy huquq va erkinliklaridan samarali foydalanayotganliklarini ko'rsatadi. Shu bilan birga fuqarolar jamoat birlashmalariga birlashish, ular faoliyatida ishtirok etish orqali o'z xohish-istaklarini ro'yobga chiqarishga, muayyan maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Davlat va jamiyat hayoti rivojlanib, insonlarning ongu-tafakkuri, siyosiy va huquqiy madaniyati yuksalib borar ekan, jamoat birlashmalariga ehtiyoj ortib boraveradi. Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalar qisqarib, insonlar hayotiga davlatning aralashuvi cheklanib, nodavlat tuzilmalarining boshqaruvdagi roli va ishtiroki yuksalib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasiga asosan, «Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi».

XULOSA

Demak, jamoat birlashmalarini tashkil etishda ularning maqsadi ezgu bo'lishi talab etiladi. Yuqoridagi qayd etilgani kabi yovuz maqsadlarni ko'zlagan jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Dastlab ezgu, yaxshi, qonuniy maqsadlarni ko'zlab, o'z dasturiy vazifalariga ijobiy ishlarni amalga oshirish maqsadi va vazifalarini ko'rsatib, keyinchalik qonunda taqiqlangan faoliyat bilan shug'ullanuvchi jamoat birlashmalari faoliyati sud tomonidan taqiqlanadi.

Shuningdek, turli maxfiy jamiyatlar va uyushmalarni tuzish ham Konstitutsiyaga asosan taqiqlanadi. Buning amaliy misolini biz turli jinoiy qilmishlarni sodir etuvchi, noqonuniy ishlar bilan shug'ullanuvchi, yashirin birlashmalarni tashkil etilganligi va ularning faoliyatiga chek qo'yilgani misolida ko'rishimiz mumkin.

Qonuniy tarzda faoliyat olib boradigan jamoat birlashmalari, o'z harakatlarini jamoatchilikdan yashirmaydi, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tadi va faoliyat olib boradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni. //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 5-son, 115-moddasi / <https://lex.uz/docs/11360>
2. O'zbekiston Respublikasining «Kasaba uyushmalari to'g'risida»gi Qonuni. 2019 yil 6 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 1-2-son, 2-moddasi; 2008 y., 51-son, 500-moddasi.
4. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 1997. –№2. –36-moddasi.
5. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni //O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991. –№4, –76-moddasi.
6. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. 1999. –№5, –110-moddasi.
7. Akhrorqulov A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 2(10), 129-134.
8. Gulyamov, S., & Akhrorqulov, A. (2022). Notijorat tashkilotlar faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslari: milliy va xorijiy tajriba. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 1029-1041.
9. Akhrorqulov A. (2022). Notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish masalalari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(6), 893-902.
10. Akhrorqulov A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19), 1(02), 23-26.
11. Mamajonova D. (2022). Konstitutsiyaviy islohotlar–xalq manfaatining asosiy mezon. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 688-693.